

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MATALLARNING QIYOSIY TAHLILI

Zayniddinova Irodaxon Botirjon qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida uchraydigan matallar qiyosiy tahlil qilinadi. Turli til va madaniyat vakillari og'zaki ijod mahsulida qanday o'xhash va farqli fikrlarni ilgari surishi, milliy tafakkur va hayotiy tajribani aks ettirishi o'rganiladi. Maqolada lingvomadaniy hamda semantik yondashuv asosida bir qator matallar qiyosiy tahlil qilinib, ularning tarjima jarayonidagi o'ziga xosliklariga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar:

matal, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, lingvomadaniyat, semantika, tarjima.

Kirish

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajribalat to'playdi hamda bu tajribalarni turli xil vositalar orqali avloddan avlodga meros qilib qoldiradi. Dunyoda biror nir xalq yo'qki, hikmat durdonalarini yaratmagan, ularga asrlar davomida sayqal berib, asrab avaylab, tilida va dilida saqlab kelmayotgan bo'lsa. Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va dolzarb turlaridan biri — bu matal sanaladi. Ular faqat xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'libgina qolmay, ushbu xalqning ma'naviy va ruhiy dunyosini ochib beruvchi bebaho qadriyat hamdir. Har bir xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatları matallarda mujassam topgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi matallarni o'rganish orqali biz faqat til hodisasini emas, balki xalqning mentaliteti, qadriyatları va turmush tarzini ham tahlil qilish imkoniga ega bo'lamiz. Quyida ingliz va o'zbek tillarida keng tarqalgan matallar semantik, morfologik va madaniy jihatdan solishtirilib, ular

orasidagi umumiyliliklar va farqlar ochib beriladi.

Asosiy qism

1. Matallarning umumiyligi xususiyatlari

Ingliz va o'zbek tillaridagi matallar quyidagi xususiyatlarga ega:

- Obrazlilik (metafora, allegoriya): Ikkala tilda ham ko'pincha jonli misollar orqali ma'no chuqurlashtiriladi.
- Qisqaligi va mazmuniy zichligi: Matallar ko'p so'z ishlatmasdan katta fikrni yetkazadi.
- Didaktik yo'naliш: Axloqiy saboq beruvchi mazmunga ega bo'ladi.

2. O'xhash semantik struktura

Ingliz va o'zbek tillaridagi matallarning o'xhash semantik strukturalari haqida gapirganda, biz ikkala til madaniyatida umumiyligi hayotiy tajriba, qadriyatlar va ijtimoiy kuzatishlar asosida yuzaga kelgan matal turlarini nazarda tutamiz. Bu matallar mazmun (semantika) jihatidan o'xhash bo'lsa-da, ifoda shakli, metafora yoki obrazlarda farq qilishi mumkin. Quyidagi misollarda ingliz va o'zbek matallari bir xil hayotiy mazmunni ifodalaydi:

- O'zbekcha: Yaxshi do'st yomon kuningda bilinadi. — A friend in need is a friend indeed.
- O'zbekcha: Oz – bo'lsa, o'z bo'lsin. — East or West, home is best.
- O'zbekcha: Ishga yaramagan qo'lga qurol ortiq. — A bad workman blames his tools.
- O'zbekcha: Yotib qolgan otning boshi yomon. — Time and tide wait for no man.

3. Farqlanuvchi madaniy jihatlar

Ingliz va o'zbek tillaridagi matallarning farqlanuvchi jihatlari tarjima, til o'rganish va madaniy tadqiqotlar uchun eng muhim tahlil nuqtalaridan biri hisoblanadi. Har bir matal ma'lum bir xalqning turmush tarzi, urf-odati va tarixiy tajribasi asosida shakllanadi. Shuning uchun matallarda madaniyatga xos obrazlar va tushunchalar uchraydi. Bundan tashqari ikki madaniyatda obrazlar va tabiatga munosabat bir-biridan farq qilishi mumkin. O'zbek matallarida ko'proq oila, yer,

mehnat, va insoniy qadriyatlar tasvirlansa, ingliz matallarida ko'pincha hayvonlar, ob-havo yoki tabiiy hodisalar orqali fikr ifodalanadi.Ba'zi matallar faqat o'z milliy hayat tarziga xos ma'lumotlarni beradi. - O'zbekcha: "Otangga rahmat, noningni topib yebsan." → Qadriyatlar – ota-onaga hurmat, rizq uchun minnatdorchilik.

- Inglizcha: "The early bird catches the worm."

→ Vaqtning qadri, raqobat muhiti – individual yondashuv ustun.

Yoki:

- O'zbekcha: "Qo'shnichilik" – qardoshlik."

- Inglizcha: "Mind your own business."

4. Tarjima muammolar

Ingliz va o'zbek tillaridagi matallarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar — tilshunoslikda frazeologik birliklar, madaniy qadriyatlar, va kontekstual tafovutlar bilan bog'liq murakkab muammolardir. Quyida ushbu muammoni batafsil tahlil qilib, har bir jihatini misollar bilan ko'rib chiqamiz. Matallar ko'pincha majoziy ma'noga ega bo'lgan iboralardan iborat. Ularni so'zma-so'z tarjima qilish, mazmunni yo'qotishga yoki noaniq, hatto kulgili holatlarga olib keladi. Bundan tashqari Ingliz va o'zbek tillari turli madaniyatlarga mansub bo'lgani sababli, ayrim matallar bir til madaniyatida mavjud bo'lsa-da, boshqasida umuman yo'q bo'lishi mumkin. Shu sababli, ekvivalent topish qiyinlashadi.Misol: Inglizcha: The squeaky wheel gets the grease. (Faol bo'lgan kishi e'tibor oladi), O'zbekcha ekvivalenti: Yig'lamagan bolaga sut yo'q.Matal bir xil fikrni bildirsa-da, kontekst va obrazlar har xil. Ba'zan ingliz tilidagi matal o'zbek tilidagi an'anaviy hikmatli gaplar bilan bir xil ma'noni anglatmaydi. Tarjima chog'ida matalning semantik (ma'no) asosini tushunish muhim.

O'zbekcha matallar odatda sho'ba gaplar yoki qisqa iboralar shaklida bo'lsa, ingliz tilidagilari murakkab gaplar yoki chastotali idiomatik iboralar bo'lishi mumkin. Agar tarjimon ingliz yoki o'zbek madaniyatini yaxshi tushunmasa, matalning chuqur ma'nosini anglay olmaydi. Bu esa noto'g'ri tarjimaga olib keladi. Noto'g'ri tarjima: Inglizcha: Curiosity killed the cat. Noto'g'ri tarjima:

Qiziqish mushukni o'ldirdi, to‘g‘ri tarjima: Ortib ketgan qiziqish baloga yo‘liqtiradi. Matalni to‘g‘ri tushunish uchun madaniyatlararo kompetensiya zarur. Ko‘p hollarda inglizcha matalga aniq o‘zbekcha muqobil topilmaydi. Bunday holatda erkin tarjima yoki izohli tarjima zarur bo‘ladi.

Xulosa

Matallar xalq ruhiyatining, tafakkur tarzining o‘ziga xos ifodasidir. Ingliz va o‘zbek matallarini qiyoslash orqali biz ularning til xususiyatlarigina emas, balki madaniy asoslarini ham anglaymiz. Ularning o‘xshashligi – umuminsoniy qadriyatlarning mavjudligidan, farqlari esa milliy tafakkur va tarixiy tajribadan dalolat beradi. Tarjimada esa har doim madaniy kontekstga e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. (2017). O‘zbek tilida matallar: izohli lug‘at. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Greenwood Press.
3. A. House. (2015). Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge.
4. Sharipov, M. (2010). Lingvistik madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Cowie, A.P. (1985). Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. Oxford University Press.
6. Saidova, M. (2020). “O‘zbek va ingliz tillarida matallarning lingvokulturologik tahlili”, Filologiya masalalari, №3, 45-50.